

## KIMYO FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

*Najimova Shaxloxon Rasuljon qizi*

*Andijon viloyati Marhamat tumani*

*30-umumiy o‘rta ta’lim maktabining kimyo fani o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada umumta’lim maktablarida kimyo fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, ularning ahamiyati va samaradorligi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari maqolada, pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarni qay darajada fanga qiziqtirishi, ularning bilim va ko‘nikmalarini oshirib mustaqil fiklashiga xizmat qilishi ham yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** kimyo, fan, ta’lim, innavatsion, didaktika, “rezyume”, interfaol usullar, “sirli sandiqcha” usuli, bilimlar uyi usuli, kundalik turmush.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация об использовании современных педагогических технологий, их значении и эффективности в обучении химии в общеобразовательной школе. Кроме того, в статье описывается, в какой степени использование педагогических технологий может заинтересовать учащихся наукой, повысить уровень их знаний и умений, повысить самостоятельность мышления.

**Ключевые слова:** химия, наука, образование, инновация, дидактика, «резюме», интерактивные методы, метод «таинственного ящика», метод дома знаний, повседневная жизнь.

**Annotation.** This article presents information about the use of modern pedagogical technologies, their importance and effectiveness in teaching chemistry in secondary schools. In addition, the article describes the extent to

*which the use of pedagogical technologies can make students interested in science, increase their knowledge and skills, and increase their independent thinking.*

**Key words:** *chemistry, science, education, innovation, didactics, "résumé", interactive methods, "mystery box" method, house of knowledge method, everyday life.*

Ta`limning bugungi vazifasi o`quvchilarni kun sayin oshib borayotgan axborot – ta`lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko`rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o`rgatishdan iboratdir. Buning uchun uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur.

**Didaktik o`yin texnologiyalari:** Didaktik o`yinlar texnologiyalari o`quvchi faoliyatining faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o`quvchiga ijobiy imkoniyatlarni ro`yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Didaktik o`yinlar o`quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tatqiq qilish hisoblash, o`lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash axloq – odob o`rgatish, nutq o`stirish til o`rgatish, yangi bilimlar o`rgatish va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirishga yo`rdam beradi. Kimyo darslarini olib borishda quyidagi didaktik o`yinlardan foydalanish mumkin: Rolli o`yin darsi, kim oshdi savdosi darsi, komputer darsi, integratsiyalangan dars, formulalar darsi va hakazo.

Kimyo darslarida foydalanish mumkin bo`lgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar:

**“Rezyume” texnologiyasi.** Bu texnologiya murakkab, ko`p tarmoqli, mumkin qadar muammoli mavzularni o`rganishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda bir yola mavzuning turli tarmoqlari bo`yicha axborot beriladi. Ayni paytda ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama qilinadi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va

zararlari belgilanadi. Masalan, 10-sinf kimyo fanida “Neft va neftni qayta ishlash” mavzusida ushbu texnologiyani qo‘llash mumkin.

Neft	Toshko'mir	Tabiiy gaz	Yangi energiya turlari
Afzalligi	Afzalligi	Afzalligi	Afzalligi
Kamchiligi	Kamchiligi	Kamchiligi	Kamchiligi

**“Muammo” texnologiyasi.** O‘quvchilarga o‘quv predmetining mavzusidan kelib chiqqan turli muammoli masala yoki vaziyatlarning yechimini to‘g‘ri topishlariga o‘rgatish, ularda muammoni yechishning ba‘zi usullari bilan tanishtirish va muammoni yechishda mos uslublarni to‘g‘ri tanlashga o‘rgatish, muammoni kelib chiqish sabablarini va muammoni yechishdagi xatti-harakatlarni to‘g‘ri aniqlashga o‘rgatish. Masalan, 7-sinf kimyo fanida “Suv havzalarini ifloslanishdan saqlash choralari” mavzusida qo‘llash mumkin.

Muammoning turi	Muammoning kelib chiqish sabablari	Muammoni yechish usullari va sizning harakatingiz
Toza ichimlik suvining kamligi	Suvni toza saqlashga e'tiborning kamligi	Tabiat va suvni saqlashga oid tadbirlar o'tkazish

**“Sirli sandiqcha”.** Bu usuldan amaliy mashg‘ulotlar va laboratoriya ishi darslarida foydalaniladi. Bu usul o‘quvchilarni kimyoviy asboblarni va idishlarni nomlarini eslab qolishlariga yordam beradi. O‘qituvchi bu usulni ochiq darslarda, kimyoviy kechalarda guruh sardorlari o‘rtasida o‘tkazsa, dars yanada qiziqarli o‘tadi.

**“Bilimlar uyi”.** Bu usuldan dars mavzusini mustahkamlashda va guruhlar nomini tez va shovqinsiz tanlashda foydalaniladi.

Xulosa qilib aytganda, yangi pedagogik texnologiyalar bilan o‘tkazilgan

darslar o'quvchini mustaqil fikrlashga, nutqi rivojlanishiga, o'zaro bir-biri bilan muloqotga va xatto o'zi xulosa chiqarishga o'rgatadi. Shunday ekan, biz o'quvchilarning fikrlash qobiliyati va fanning rivojlanishini ta'minlashimiz kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Tolipov O'., No'monova N. Ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar. G'.G'. Xalq ta'limi.-Toshkent, 2002.
2. A.Mavlyanov va boshqalar "Dars jarayonida interfaol usullardan foydalanish" Toshkent. 2008.
3. Yuldashev, O. (2021). РАСЧЁТ СИЛОВЫХ ХАРАКТЕРИСТИК ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА ОБРАБОТКИ ПОЧВЫ. *НАУКА И МИР*.